

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11081033>

**Otaqo'ziyev A**

**Ashurova Z.**

*1 Andijon mashinasozlik instituti assistenti*

*2 Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarning B1, B2 va C1 darjadagi milliy va xalqaro darjadagi sertifikatlarni olish uchun o'qitish metodlari va o'rganish uslublarining avvalgi uch oyida qanday tashkil qilish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** turk tili, zamonlar, kelishiklar, so'zlarni yodlash, qo'shimchalar, so'zlar tuzish, gaplar tuzish.

### KIRISH

Turk tili (Turkcha: *Türkçe*) – asosan turk tilida gaplashuvchi xalqlar Turkiyada yashaydilar.

Turk tili -turkiy tillardan biri xisoblanadi. Asosan, Turkiyada, shuningdek, Iroq, Suriya, Eron, O'zbekiston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Ruminiya, Bolgariya, Gretsiya, Rossiya, Germaniya, Niderlandiya, Fransiya, Kipr oroli, Makedoniya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. Turkiya Respublikasining va Kipr Respublikasining (grek tili bilan birga) rasmiy tili hisoblanadi. O'tgan asr oxirlarida so'zlashuvchilarning umumiy soni 55 mln. ga yaqin Turkiyaning o'zida 50 mln. dan ortiq kishini tashkil etgan. Ko'p jihatdan Turkiyada Sharqidagi, ayniqsa, Anatoliya shimoli sharqidagi mintaqa ozarbayjon tiliga o'xshashlik belgilari bilan ajralib turadi. Anatoliyaning boshqa qismi hamda sharqiy frakiya shevalari, shuningdek, boshqa mamlakatlardagi Turk tili lahjalari o'zaro unchalik farq qilmaydi.

**Materiallar va usullar:** Turk alifbosi (türk alfabesi). Har qanday tilda qo'llaniladigan tovushlarni ko'rsatgan belgilar yig'indisi ya'ni harflarning tartibli qatoriga alifbo deyiladi.

*1-jadval. Turk tili alifbosi ketma-ketligi.*

Turkc ha harflar	Nomla -nishi	Talaf- fuzi	Turkc ha harflar	Nomla -nishi	Talaffu zi
A a	a	a	M m	Me	M
B b	be	b	N n	ne	n
C c	je	j	O o	qat. o'	rus. o
Ç ç	che	ch	Ö ö	yumsh	yumsh.
D d	de	d	P p	. o'	o'
E e	e	e	R r	pe	p
F f	fe	f	S s	re	r
G g	ge	g	Ş ş	se	s

Ğ ğ	yumsh	yumsh	T t	she	sh
H h	.g'	.g'	U u	te	t
İ i	xe	x	Ü ü	qat. u	qat. u
ı ı	i	i	V v	yumsh	yumsh.
J j	i	rus i	Y y	. u	u
K k	j	ji	Z z	ve	v
L l	ke	k		ye	y
	le	l		ze	z

Olmoshlar (zamidler) Ot bo'lmagan holda ot o'rnida qo'llanadigan so'z turkumiga olmosh deyiladi. Turk tilida olmoshlar to'rt bo'limda ajratilib o'rganiladi. Bular quyidagilardir. Kişi zamirleri: Tekil; ben, sen, o. Çoğul; biz, siz, onlar, kendi.

Shaxs nomlari o'rnida qo'llaniladigan olmoshlarga kishilik olmoshlari deyiladi. Turk tilida o'zlik olmoshi sanaluvchi *kendi* olmoshi ham kishilik olmoshi sanaladi va ularning ichida o'rganiladi. Kendi olmoshi barcha kishilik olmoshlari o'rnida qo'llanila oladi.

**Natijalar va muhokama:** İşaret zamirleri: Tekil; bu, şu, o. Çoğul; bunlar, şunlar, onlar, beriki, öteki.

Soru zamirleri: kim? ne? nasıl? ne zaman? nerede? kaç? hangi? nerede?

Belgisiz zamirler: bir kaç, biri, kimi, bazı, hepsi, çoğu, birtakım, birazı.

Shulardan gumon olmoshlarining vazifasi predmet, belgi yoki hodisa haqidagi noaniq tasavvurni bildirib, ularga umumiy (abstrakt) va taxminli ishora qiladi.

Eslatma: Turk tilida "insan" "adam" kabi so'zlar ham o'rni bilan gumon olmoshlari ma'nosida ishlatiladi. İnsana bir sorarlar değil mi? Adam ahbabından belli olur. Ushbu gaplarda ifodalangan "insan" "adam" kabi so'zlar gumon olmoshlari vazifasida "har qanday kishi" ma'nosini ifodalamoqda.

Şahis Zamirleri –Kishilik olmoshlari, Birinci Tekil Şahis → Ben, İkinci Tekil Şahis → Sen, Üçüncü Tekil Şahis → O, Birinci Çoğul Şahis → Biz, İkinci Çoğul Şahis → Siz, Üçüncü Çoğul Şahis → Onlar

**Mashq.** Atoqli otlarning o'rniga kishilik olmoshlarini qo'ying. Altı çizili özel isimler yerine kişi zamirleri koyunuz.

Turk tilida unli tovushlar. Tovush tilning eng kichik bo'lagidir. So'zlashuv, kelishuv va til, tovush va tovush guruhlari asosida yuzaga keladi. Turk adabiy tilida sakkiz unli fonema mavjud. Bular: [a], [e], [ı], [i], [o], [ö], [u], [ü].

Og'izdan hech bir to'siqqa uchramasdan chiqadigan tovushlarga *unli tovushlar* deyiladi. Bu unli tovushlar og'izdan chiqishdagi ovozning toni, lablarning va jag'larning holatiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1- Qalin (*kalin*) unlilar ; [a], [ı], [o], [u]. 2- Ingichka (*ince*) unlilar; [e], [i], [ö], [ü].

Turk tilida ko'plik qo'shimchasi otlarga, olmoshlarga va fe'llarga qo'shib birlikdan ko'plik formasi yasaydi. Turk tilida ko'plik qo'shimchasi ikki shaklga ega: -lar, -ler. Har doim

unli uyg'unligiga (birinchi qonun - büyük ses uyumu) amal qiladi: baba - babalar, balık - balıklar, genç - gençler, ünlü - ünlüler, odun - odunlar.

Eslatma: Ko'plik ma'nosida qo'llaniladigan sifatlardan keyin kelgan otlarga ko'plik qo'shimchasi qo'shilmaydi: (birkaç çocuklar) birkaç çocuk, (on adet kitaplar) on adet kitap. Eslatma: Sifatlar va ravishlarga ko'plik qo'shimchasi qo'shil-maydi. Eslatma: Turk tilida bu, şu, o olmoshlaridan keyin oraga -n bog'lovchi harfi orttiriladi: bu-n-lar, şu-n-lar, o-n-lar. Eslatma: Turk tilida ko'plik qo'shimchasiga urg'u tushadi. Ko'p-lik qo'shimchasidan keyin boshqa qo'shimchalar qo'shiladi; araba-cıların, yabancılarından, duraklardır, kelimelerde...

Mesala: Çokluk Eki (-lar, -ler), Kalın ünlüler: -a, -ı, -o, -u → lar, İnce ünlüler: -e, -i, -ö, -ü → ler, Örnek: defter-ler, kitap-lar, masa-lar.

Soru eki (So'roq qo'shimchasi)- Turk tilida so'roq qo'shimchasi to'rt shaklga ega: mı (-mi, -mu,-mü). So'roq qo'shimchasi har doim o'zidan oldin kelgan so'zdan ajra-tib yoziladi. Shunday bo'lsa-da, o'zidan oldin kelgan so'zning oxirgi bo'g'inidagi unliga asosan unli-lar uyg'unligiga moslashadi: gördü mü? bildi mi? sarmış mı? bulur mu? ...kabi, 'mi' soru eki, a-ı → mı, e-i → mi, o-u → mu, ö-ü → mü, Örnek: Bu kitap mı? Bu kalem mi? Şu televizyon mu?

Otlarda egalik qo'shimchalari (iyelik ekleri) ni qo'shish tartibi bulardan iborat bo'ladi va o'quvchilar bularni yodlab olishlari kerak.

### 2-jadval. Turk tilida qo'shimchalarni qo'shish jadvali.

	e, i-li bo'g'ind an keyin	ö, ü-li bo'g'inda n keyin	a, ı-li bo'g'indan keyin	o, u-li bo'g'indan keyin
Egalik qo'shimchala ri	-(i)m, - (i)n,-(s)i; -(i)miz,- (i)niz, -(leri)	-(ü)m, - (ü)n, -(s)ü; - (ü)müz, -(ü)nüz, - leri	-(ı)m, -(ı)n, -(s)ı; -(ı)mız, - (ı)nız, -ları	-(u)m, - (u)n,-(s)u; -(u)muz,- (u)nuz, -ları
Benin Senin Onun	ineğim ineğin ineği	ütüm ütün ütüsü	masam masan masası	torunum torunun torunu
Bizim Sizin Onların	ineğimiz ineğiniz inekleri	ütümüz ütünüz ütüleri	masamız masanız masaları	torunumuz torununuz torunları

**Xulosa (Sonuç).** O'quvchilar yuqoridagi mavzularga moslashgan holda, turk tilini mukammal va mazmunli o'rganishlari lozim. Asosiy maslahatlar erta tongda va uyqudan

uyg'ongan hollarda 10 tadan 20 tagacha so'zlarni yodlashlari va ular asosida gaplar tuzishlari daftarlarga yozgan holatda 3 marotabadan 5 marotabagacha qaytarishlari kerak har kuni. Mashiq'larni bajarish uchun ko'rsatmalar qo'shimchalarni qo'shish ularni farqlash katta ahamiyatga molik xisoblanadi, *kitabı*-kitobga, *kitaba*-kitobda, *kitabında*-kitobida, *kitabın*-kitobning kabi so'zlarni unli va undosh shakillarga qo'ygan holda bajarish kerak. Minimonika usullaridan foydalangan hollarda so'zlarni oson va tez yodlab olish mumkin bo'ladi. Ushbu mashiq'larni qunt bilan o'rgangan holatda 3 oy mashiq'lar bajarilishi kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. X. Imamova, M. Maqsudova, S. Toshaliyeva "Asosiy o'rganilayotgan til (turk tili) darslik. Toshkent–2013
2. Mehmet Yalchin Yilmaz "Yeni Istanbul" kitbi A1,A2,B1. 2021-yil.
3. Banguoğlu T. Türkçenin Grameri. –Ankara, 1998.
4. Ergin M. Üniversiteler için Türk Dili, Bayrak Basimevi. –İstanbul, 2000.
5. Hamidov X., Turk tili grammatikasi. Morfologiya, –Toshkent: Fan va texnologiya. 2006.
6. Hamidov X.X., Tilavov A.X., Yildirim H. Turk tilidan mashqlar to'plami. Türkçe Alistirmalar kitabi. –Toshkent: Voris-nashriyot, 2009.
7. Mavlonova, Z. (2023). CHET TILINI O'QITISHNI YANGI METODLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 16(3), 41-44.
8. Davronovna, X. M. (2024). IKKINCHI CHET TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEADAGOGIK METODLARNING ORNI. SO 'NGI ILMIIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 38-44.